# ЁРҚИН КЕЛАЖАККА ҚАДАМ ЯНГИ ЙИЛ, БИЗГА БАХТ ҲАМИША ҲАМДАМ ЯНГИ ЙИЛ!

## “НАВНИҲОЛ” УЛҒАЙМОҚДА ЙИЛЛАР БАҒРИДА



2021 йилда севимли газетамиз “Оқдарё овози”нинг 90 йиллик тўйини нишонлар эканмиз, ҳақли равишда ижодкор аждодларимиз ушбу газетанинг 1931 йилдан бошлаб чоп этилган илк сонлари ҳам бадиий ижод мактаби намуналари билан бошлаганлигига ишончимиз комилдир.

Жорий йилнинг 18 декабрь кунида бўлиб ўтган мушоирамиз катта ижодий давраларимизинг давоми бўлди. Наврўзбек айтганидек, сўз ва шеър ҳурмати учун ташриф буюрган ижодкорларимизнинг қадамлари қутлуғ келсин. Ёш ижодкорларимиз Фарҳод Рўзиев ҳамда Наврўз Ҳасановларнинг оташин шеърлари, Шаҳнозахон Расулованинг ёшликни тараннум этган ижод намуналарини , Саодат Аҳмедова, Хадича Қобилова, Меҳрибон Ҳақбердиева, Назира Авиева, Чаман Норқуловаларнинг ҳаётий тасвирларга бой шеърларини мароқ билан тингладик. Фарҳоджон ажойиб ижодий анъанани таклиф этди. “Энди ҳар ойнинг жума кунида ҳар доимгидек, мушоира ва мутолаа кечаси ташкил этамиз ва бир ой давомида битта вазифа - бир мавзуда биттадан шеър ёзамиз”. Бу анъана барча ижодкорларга маъқул бўлди. Бу сафар “Бугун сенга мактуб йўлладим...” мавзусида ижод қиламиз, шеър ёзамиз, дейишди.

Дарҳақиқат, бу анъана бизнинг ижод тажрибаларимизни янада бир-биримизга боғлайди, доимий изланиш, ҳозиржавоблик ҳамда қаламимизни ҳеч қачон қўлдан қўймасликка ундайди.

Хуллас, пандемия давридаги зерикишларимиз, анчадан буён жонли шеърхонликни соғинганимиз учрашувимиз давомида хурсандчиликка, ижодий кайфиятга айланди.

Мушоирамиз давом этади. Ижодкорларимиз ташаббуси билан ташкил этилган “ОҚДАРЁ ИЖОДКОРЛАРИ” телеграм гуруҳимиз доимий ҳамкорлигимиз учун катта имкониятдир. Ўзаро ижодий мулоқотлар, таҳлиллар, маслаҳат ҳамда рағбатлар ижодкорларимиз сафини тобора кенгайтирмоқда. Ижодий кечада келгуси янги йил мобайнидаги ижодий тадбирларимизнинг режалари тузилди. Навбатдаги учрашувимиз 2021 йил 29 январда ўтказилиши белгиланди.

“Навниҳол” улғаймоқда, сафимизга навқирон, қалами ўткир ёш ижодкорлар қўшилмоқда. Янги йил ижодкор халқимизга тинчлик ва бахт келтирсин!

**Ўз мухбиримиз.**

## ҚИШЛОҚҚА ҚАЙТИШ

**(“Навниҳол” ижодий клубига)**

Қирқ йил ортга қайтиб, кўрдим Навниҳол
Ўзича интилар самога – кўкка,
Ҳислари – бокира, туйғулар – алвон,
Беғубор ниятни жолаб юракка.

Кимлар бозор томон елар – югурар,
Уларни бошқарар гўё ошқозон.
Навниҳол, кўнглингни англамас улар,
Сенинг завқ, ҳасратинг туймас ҳеч қачон.

Сенинг бор бисотинг – туйғулар, туғён
Урганча дилларга насимдек етар.
Пардозсиз шеърларинг мискин ё шодон,
Ҳисли юракларга оромбахш этар.

Сенинг дунёингдан йўлга чиққанман,
Шукр, кечмишимдан чекмайман афсус...
Йўл-чи*, шодланади қайтмоғлигимдан,
Гўё баҳор томон қайтади август.

**Тоҳир ДОЛИЕВ.**

* – Сўз ўйинида ёшликдан дўстлашган қадрдони Йўлчи Муҳаммадиевга ишора қилинмоқда.

## СОҒИНЧ

Оқ автобус, оппоқ автобус,
Оқ бағрингга мени ютиб ол.
Оппоқ йўллар, оппоқ манзиллар,
Оппоқ дарё, мени кутиб ол.

Тўлқин бўлиб қалққин ва чайқал,
Ё тулпордай кетавер йўртиб.
Тез одимла, сўрайман сендан
Юзларимга дуолар тортиб.

Мен соғиниб кетдим уйимни,
О, тегирмон ўкиришлари.
Шошилмоққа ундар негадир,
Оппоқ тутнинг тўкилишлари.

Туннинг оппоқ ой шуъласида,
Қанча-қанча айтилган аҳдлар.
Йўлларимга чиқинг, боряпман,
Оппоқ пайпоқ кийган дарахтлар.

Оқ автобус, оппоқ автобус,
Ғилдираклар қўйсин нозини.
Манзилига эртароқ элтгин
Оқдарёнинг оппоқ қизини.

**Гулҳаё АНОРОВА.**

## ҚОРБОБОГА МАКТУБ

Қувончларим урилади бир-бирига,
Урилгандек қадаҳларим жиринг-жиринг.
Тўпланганмиз коинотнинг бир Ерига,
Қутлуғ бўлсин, сайёрадош Янги йилинг!

Хаёлимнинг катталиги қор курайди,
Хаёлимнинг болалиги чанғи учган.
Қор сўрайди, кўнгил қурғур қорсирайди,
Орзулар ҳам кабутарлар янглиғ учган.

Ооо, дўстгинам болалигинг менга таниш -
Пайпоқларинг- қўлқопларинг бўлган бўлса.
Хўл пахтада оқ зарларни шифтга санчиш,
Рангқоғозда занжир ясаб илган бўлсанг.

Кўмир излаб, сабзи излаб, челак излаб,
Юрган бўлсанг, инимизсан бирга ўсган.
Том курашга, қор курашга, курак излаб,
Чиққан бўлсанг, қўшнимизсан бирга ўсган.

Кирланишдан қўрқиб балки қорлар ёғмас,
Оппоқ эди, кўнглимиз ҳам, сўзимиз ҳам.
Этикларни кияр эдик сиғар-сиғмас,
Оппоқ эди, лекин босган изимиз ҳам.

- Қайга кетдинг болаликнинг Янги йили?
Кийим эмас, қорлар кийган Қорбобоси.
Қор ёғмайди, ғичирламас, йўлим чангли,
Йиғлай десам, юзларимни қорга босиб.

Хат ёзади... Қорбобога ўғлим тунда,
У билади, умид билан ёзар лекин:
“- Қорбобожон сен бор бўлсанг, агар чиндан
Сен дадамнинг болалигин олиб келгин!”.

...Қайга кетдинг, болаликнинг Янги йили..?!

**Наврўз ҲАСАНОВ,**
**Янгикўрғон қишлоғи.**

## ҚУЧОҒИГА КЕТЯПМАН

Талабалигим тугар,
Бинолар бошин эгар.
Хайр, онажон шаҳар,
Қишлоғимга кетяпман.

Узун-узун ўйларим,
Хайр,равон йўлларим.
Бугун ўша қўллари,
Қадоғимга кетяпман.

Ёшлик қолар ортимда,
Олифта костюм-шимда,
Тўнлари нимта-нимта,
Ямоғимга кетяпман.

Соғинганман изларин,
Мени кутар кўзлари.
Нон ёпганда юзлари
Ёноғимга кетяпман.

Борсам кўнгли байрамнинг,
Кутиб кўзлари намнинг,
Бир муштипар онамнинг
Қучоғига кетяпман.

Тақдир айирар бизни,
Кўзда ёш курсдош қизнинг.
Қишлоқи қаро кўзнинг
“Тузоғи”га кетяпман.

Майсаларда ётганим,
Булоқларин тотганим,
Ўша, сенга айтганим,
Узооогимга кетяпман.

**Фарҳод РЎЗИЕВ,**
**туман ХТБ услубчиси.**

## ЯНГИ ЙИЛ

Ғамларни унутинг, эсламанг ҳатто,
Дард сизни орзудан қилмасин жудо.
Ахир янги бахтни юборди Худо,
Тутиб қолинг, янги орзу - янги йил.
Янгича яшашга туйғу янги йил,
Бахтли инсонларга бахтнинг давоми.
Тилагим, бўлмасин бахтнинг поёни,
Эски йилда қолсин қайғу, армони.
Янгича ҳаётга эшик янги йил,
Фарзанд кутганларга бешик янги йил.
Йигит тутганича қизнинг қўлидан,
Одимлаб бормоқда ҳаёт йўлидан.
Уларга ишқ берди Аллоҳ кўнглидан,
Севишганлар учун қўшиқ янги йил.
Асли шу ошиқ-у маъшуқ янги йил,
Арча атрофида яқинлар жами.
Ота-онам ёки опа-укамми,
Синглим, дунё бир кам, тўлмаган ками.
Ота-онам ҳаёт, бахтим янги йил,
Улар менга нажот, аҳдим янги йил.
Дўстим, кел бу йилга бирга ўтамиз,
Армон-у азобни ташлаб кетамиз.
Меҳрдан бошқасин асраб нетамиз,
Ёрқин келажакка қадам янги йил,
Бизга бахт ҳамиша ҳамдам янги йил.

**Озодахон Ўроқова,**
**26-умумтаълим мактабининг она тили ва адабиёт фани ўқитувчиси.**

## БАЙРАМ ҲАЗИЛЛАРИ

**(Халқ ижоди оҳангларида)**

**Истироҳат боғидаги янги музей:**
Ёрилгин тош, ёрилгин, мен опамни кўрайин,
Дийдорига тўяйин.
Эллик ёшин ҳурмати, кўп бўлганди меҳнати,
Мени деб уйсиз қолди, маошсиз, пулсиз қолди...
Аҳволини сўрайин...



**“Янгиобод”даги эски музей:**
Ёрилма тош, ёрилма, мен синглимни кўрмайин,
Дийдорига тўймайин.
Олдин эди қондошим, энди бўлди кундошим.
Олтин эдик хор бўлдик, бир меҳрга зор бўлдик.
Эрлар кўнгли бойликда,таландик, тарож бўлдик.
**Иккаласи:**
Ёрилгин, тош, ёрилгин, музей кўрсин Оқдарё.
Буюк тарихин куйлаб, кўз-кўз қилсин Оқдарё.



**Марказий парк қўшиғи:**
Қарғалар учса қарайлик, истироҳат боғига,
Кези келса дуч бўлайлик,
Кундузи баргу, хазон, тунлар зимистон чоҳига.
Чархпалак бўйликкинам, сен унда зор, мен бунда зор,
Уйингоҳинг узра ҳар кун кезмоққа диллар интизор.
Қарғалар учса, қарайлик...



**Бозорқўмнинг бозорчига айтганлари:**
Оқ илон, оппоқ илон, ойдинда ётганинг қани?!
Видеога олаверма!
Тармоқларга ёзаверма,
Блогерга чопаверма!
“Отам-бозор” деб келасан, “Онам-бозор” деб келасан...
Мен ёмонни танқид қилиб, яхшини топганинг қани?!



**Блогерларимиз ҳасрати:**
Сунбула-ё, сунбула, ўраб олай гул билан,
Танқид ёқмас раҳбарларга, ёзай қайси тил билан.
Катталарга ҳасадим йўқ, “пиар”ларга ҳавасим йўқ,
Халқим рози бўлсин дейман, яшаяпмиз эл билан.

**Болакайнинг электросетга мактуби:**
Самолёт, самолёт, симёғочдан пастлаб ўт,
Чироғингда хат ёзай, электросетга ташлаб ўт.
Зариф ака, сўзим малол келса, мени кечиринг,
Фақат, “Фаза ... портлайди” деб, мижозларни қўрқитманг.





**ИИБ биноси ёнидаги она-бола суҳбати:**
- Ойижон, манов арчанинг, айтинг, нега барги йўқ?
Бунча ориқ, суяклари чиқиб, симдан ясалган?
- Бу арчами?... Сендек ўйнаб, тўйиб овқат емаган,
Бу қулоқсиз! Онасининг айтганини қилмаган.

**САЙЁДА.**

## ЛАТИФАЛАР



- Ҳа, ўртоқ, кайфиятинг йўқ?
- Эй, хотиним яна жанжал қиляпти.
- Нега?
- 5600 сўм пул ёш оилага бир кунга етмайди, дейди.
- Тежаб ишлатса етади.
- Мен ҳам шуни айтаман-да. У бўлса, нуқул бу пул бизга етмайди, сиз ҳам ишланг, деяверади.

**

- Салом, пул олмайдиган доктор!
- Ваалайкум ассалом, тузалмайдиган бемор!

***

Бир одам врачнинг ёнига келиб дебди:
- Доктор, менга ёрдам беринг. Мен тушкунликка тушиб қолдим.
- Нима бўлди?
- Нарх-наво ошиб боряпти, кундан-кунга янги солиқ жорий қилинаяпти, мени эса пулим йўқ!
- Кечирасиз, сизга пул бера олмайман!
- Ҳеч бўлмаганда, депрессиядан чиқиш учун арзонроқ бирор дори ёзиб бермайсизми?
- Мен сизга текин йўлини ўргатаман. Чуқур нафас олинг, чиқаринг. Яна такрорланг.
- Бу қандай ёрдам бериши мумкин?
- Ҳаво бепуллигида тўйиб нафас олволинг...



***

Бир қасамхўр инсон ҳар сафар яқин дўстидан пул қарз оларди-да, қайтармасди. Кунлардан бирида пул сўраб борганда дўсти қарз беришни хоҳламади.

Дунёда нечта қасам бўлса, ҳаммасини ичиб кўрди. Дўсти юмшай қолмади. Охири ўйлай-ўйлай, охирги қасамини ишга солди. Мана шу қасамига дўсти ишонди ва пул қарз берди.

Бу қандай қасам эканини биласизми?

Қасамхўр шундай қасам ичганди:
- Агар қарзимни қайтармасам коронавирусга учраб ўлай-й-й!

***

Қуён билан айиқ пул топиб олибди.

Айиқ:
- Кел, бир муштдан урамиз. Ким кўп тишларни синдирса, пул ўшаники.

Қуён рози бўлибди ва биринчи бўлиб мушт туширибди.
- Нечта?
- Бир, икки, уч...олтита.

Айиқни навбати келиб, бор кучини йиғиб қуёнга зарба берибди.
- Нечта?
- Тўйтта.
- Қанақасига тўртта?
- Чунки босқа тисим йўқ-да!

## БОЛАЖОНЛАРГА ТАДБИРКОР ТУҲФАСИ



Янги йил кириб келишига ҳам саноқли кунлар қолди. Байрам арафасида тадбиркорларнинг “Сизга совға”, “Қорбобо совғаси” каби байрам совғаларини улашиши яхши анъанага айланган. Худди шундай совға улашишдек хайрли ишлардан бири жорий йилнинг 23 декабрь куни 11-умумтаълим мактабида бўлиб ўтди. Унда “Миёнқол” маҳалласидаги тадбиркор Қосимжон Рустамов ҳомийлиги асосида мактабнинг 1-синф ўқувчиларига янги йил совғалари туҳфа этилди.

Тадбиркор томонидан тарқатилган байрам совғалари болажонлар учун қувонч бағишлади.

## ҲЎКИЗ-(СИГИР) МУЧАЛИ ҲАҚИДА



Ҳўкиз (сигир) 1913 1925 1937 1949 1961 1973 1985 1997 2009 XO'KIZ-(SIGIR) йили. Булар сабр-тоқатли, камгап, ишончга лойиқ, вазмин, имиллаган, яхши феъл-атворли кишилардир. Аксар ҳолларда содда қиёфада бўлишсада, ақл-заковат соҳиби ҳамда чуқур мулоҳаза юрита олиш қобилиятига эга шахслардир. Одатда камгап, бироқ илҳом келганда гапдон бўлиб кетишади. Улар жисмоний жиҳатдан бақувват, ҳаётнинг аччиқ-чучугини тотишда бардошли. Турмушларида оила катта аҳамият касб этади. Болаларини яхши кўриб, улар билан фахрланишади. Бироқ, буйруқ беришга ўрганганликлари сабабли уларга ҳам тез-тез қўполлик қилиб туришади. Ҳўкиз йилида туғилганлар ўз оиласига бахт-саодат келтирувчи, ҳақиқий меҳнаткаш кишилардир. Ушбу мучал аёллари ўз оилалари учун жуда жон куйдиришади. Оила равнақи учун уни қаттиққўллик билан бошқариб боришади. Эрларини кўпинча ўз измиларига туширишади. Ушбу йилда туғилган аксарият эр-хотинлар хушмуомала, садоқатли, ҳиссиётли бўлиши мумкин, лекин хаёлпараст бўлиши мумкин. Кексайганларида мушкул аҳволга тушиб қолишлари мумкин, аммо буни бартараф эта олишса, қарилик гаштини хотиржам сураверадилар.


OQDARYO OVOZI

МУАССИС: “ОҚДАРЁ ОВОЗИ” МЧЖ

БОШ МУҲАРРИР: ЙЎЛЧИ МУҲАММАДИЕВ

*Муаллифларнинг фикр-мулоҳазалари таҳририят нуқтаи-назарига мос келмаслиги мумкин.*
**Газета вилоят Матбуот ва ахборот бошқармасида 15.01.2007 йил 09-07 рақами билан рўйхатдан ўтган. Нашр 5016**
**Таҳририятга келган қўлёзмалар қайтарилмайди.**
**Фойдаланилган хатларга ёзма жавоб берилмайди.**
**Газета ҳафтанинг пайшанба куни чиқади.**

Навбатчи: М.МУСТАФОЕВА.

Саҳифаловчи: Н.САФИНА.

Газета «Шердор плюс полиграф» МЧЖда офсет усулида 1570 нусхада босилди.
Буюртма ______
Манзили: Самарқанд шаҳри, У.Турсунов кўчаси 82 уй.
Босишга 16.00 да рухсат берилди.

Манзилимиз: Оқдарё тумани Лойиш шаҳри Амир Темур кўчаси 31-уй. Тел. (99866) 492-61-88.

Сотувда эркин нархда.